

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatি
yagona aksiyadorining
16-son qarori**

2023-yil 18-oktabr
soat 17:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 58-moddasasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 18-oktabr kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ kuzatuv kengashi raisi Temirov Odil Shukurovich vakolatini muddatidan avval tugatish va kuzatuv kengashi tarkibiga yangi nomzodni saylash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil 16-oktabrdagi 06-3014-sun xatida “Dehqonobod kaly zavodi” AJ ustav fondida 100 foiz 2 301 392 924 315 dona egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiya paketi egasi sifatida jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibiga jamiyat kuzatuv kengashi raisi Temirov Odil Shukurovich vakolatini muddatidan avval tugatish va “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.b. Muxamedjanov Temur Rasulovich nomzodini kuzatuv kengashi tarkibiga saylash masalasini kiritilishi so‘ralgan (*xat nusxasi ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 59-moddasiga asosan jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatni kuzatuv kengashi raisi Temirov Odil Shukurovichning vakolati muddatidan avval tugatilsin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.b. Muxamedjanov Temur Rasulovich “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatni kuzatuv kengashi a’zosi etib saylansin.

Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov